



## KOVUL (KOVAR) O'SIMLIGIDAN OLINADIGAN KIMYOVIY BIOFAOL MODDALAR TAHЛИI

Diyoraxon Isomiddin qizi Toychiyeva

Andijon Davlat Universiteti tabiiy fanlar fakulteti Kimyo ta'lif

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6748360>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 25<sup>th</sup> June 2022

### KEY WORDS

O'simliklar va hayvonlardan olinadigan tabiiy birikmalarni kimiyoziy tarkibi asosida tasniflash va sertifikatlash

So'ngi yillarda yurtimiz olimlariga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ko'rsatmasi bo'yicha, chetdan kirib keladigan dori vositalari o'rnini bosa oladigan tabiiy dorilarni yaratish vazifa etib tayinlandi.

Tabiiy bo'lgan o'simliklardan biofaol kimiyoziy moddalarni ajratib olib, ularning organizmga farmakologik ta'sirini o'rganib, ularni tabiiy dori vositalarini yaratishga jalg etilmoqda. Shunday foydali o'simliklardan biri sifatida kovul o'simligini aytishimiz mumkin.

Kovul yoki kovar ( Capparis spinosa ) - kovuldoshlar oilasiga mansub bo'lib, hayotiy shakli yarim buta. Tikonli novdalari yer bag'irlab o'sadi va balandligi 1 metr dan 2 metrgacha yetadi. Bu o'simlik oilasiga sayyoramizning subtropik va tropik yerlarida o'sadigan 300 dan ortiq turli buta, daraxt, liana va ko'p yillik o'simliklar kiradi. Kovarning vatani Shimoliy Afrika va Janubiy Yevropa hisoblanadi. Kovarning poya va shoxchalari

### ABSTRACT

*So'ngi yillarda yurtimiz olimlariga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ko'rsatmasi bo'yicha, chetdan kirib keladigan dori vositalari o'rnini bosa oladigan tabiiy dorilarni yaratish vazifa etib tayinlandi.*

yotiq, bargi tuxumsimon, guli yirik, rangi oq yoki och pushti bo'ladi. Kovar quyoshsevar va qurg'oqbardosh o'simlikdir. Qrim, Kavkaz, O'rta Osiyo, Shimoliy Afrika va O'rta dengizning toshloq yerlarida ko'p tarqalgan. Janubiy Yevropada mahsus ekiladi.

Kovar o'simligi tabiiy holda O'rtayer dengizi, Yevropa janubida, Kavkazda, O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekiston, Pokiston va Hindistonda tarqalgan. Bu o'simlik Fransiya, Ispaniya, Italiya, Aljir hamda Kiprda, Gretsya va Shimoliy Amerikada madaniylashtirilgan bo'lib, landshaftlarning bezagi hisoblanadi. O'simlikning nomi "kovar" bo'lishi, Erondagi Dashti-Kavir cho'li bilan bog'liq holda atalgan. Chunki kovar bu hududlarda eng ko'p uchraydigan o'simlik sifatida ajralib turadi.

Kovar dorivor o'simlik bo'lishi bilan bir qatorda oziq-ovqatda ham ishlataladi. Kovarning g'unchali novdalari, g'unchasini o'zi, rivojlanayotgan mevalari sirka



kislotasida marinovat qilinadi va oziq - ovqatda "kaperslar" nomi bilan mashhur dori-darmon ko'rinishida foydalilaniladi.

Odamzod kovarni ming yillardan beri iste'mol qilishi ma'lum. O'z paytida, qadimiy yunonlar kovar savdosi bilan shug'ullanganlar. Kovarning g'unchasi, mevasi sirkalab yoki tuzlab ovqatga ishlatiladi. Kovar cho'l va adirlarda, yo'l bo'yalarida, devorlar ustida, ekinlar orasida may oyidan to oktyabr oyigacha o'sadi. Dona-dona bo'lib gullaydi, guli nihoyatda chiroyli bo'lib ertalab ochiladi va kech tushishi bilan yopiladi. Mevasi ko'p urug'li rezavor bo'lib, etdor, uzunligi 2 sm. Urug'lari iyul – avgust oylarida pishadi.

Kovar juda ham foydali hisoblanib, yer ustki qismida 150 mg % gacha S vitamin, flavonoidlar (0,32 % rutin, kversetin va boshqalar), mevasi tarkibida 36 % gacha qandlar, 1,46 % flavonoidlar, tioglikozidlar, saponinlar, alkaloidlar, 32,9 % uglevodlar, 18% oqsil, 36 % moy, askorbin kislotasi, ildiz po'stlog'ida staxidrin va boshqa alkaloidlar, kumarinlar va boshqa moddalar mavjud.

Kovulning asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari uning tarkibida yuqorida keltirilgan birikmalar kompleksi bo'lishi mumkin.

Tabobatda kovarning pishgan mevasi, barglari, novda va ildiz po'stlog'i ishlatiladi. Kovardan damlama tayyorlash uchun, may-avgust oylarida ochilmagan g'unchalari, barglari terib olinadi. Shu bilan birga yosh, yog'ochlasha boshlagan novdalari va ildizining po'stlog'i shilib olinadi, maydalanadi hamda quyoshda yoki 50 - 60 °C haroratda quritiladi. Po'stlog'idan tayyorlagan damlama ishtaxa ochuvchi ta'sirga ega. Xalq tabobatida yiringli yaralarni davolash uchun ishlatiladi. Yangi shilingan po'stlog'i og'rigan tishga

bosilganda ijobiy natija beradi. Ba'zan ochiq yiringli yaralarga qo'yilganda antisептик ta'sir qiladi. Bundan tashqari o'simlikdan stenokardiyada, tireotoksikoz, gemorroyda, qandli diabet kasalligini davolashda ham ishlatiladi.

Kovul ildizidan tayyorlangan preparatlarda (nastyoka, qaynatma) qon ivishini tezlashtiradigan, qon ketishini to'xtatadigan xususiyatlar borligi aniqlangan. Shu sababdan o'simlikning ushbu preparatlari ichki organlardan qon ketishida tavsiya etiladi.

Kovar qurg'oq yerlarda o'sadigan yovvoyi o't bo'lishiga qaramay tabobatda, kasmetologiyada, oziq-ovqat sanoatida juda ham ahamiyatlari, foydali ekanligini aytishimiz mumkin. Bu o'simlik mahsus qarov talab qilmaydigan o'simlik bo'lib, hozirgi kunda kovar yuqorida aytiganidek foydali jihatlaridan tashqari mo'may daromad manbai hamdir. Masalan, 1 ga yerdan kovar ekib 1 mavsumda hosil o'rtacha normadan 3 marta kam bo'lganda 100 000 000 so'm foyda olish mumkin.

Hozirgi kunda yurtimizda prezidentimiz qarorlariga muofiq kovar plantatsiyalari tashkil etilmoqda va Yevropa mamlakatlariga eksport qilish yo'lga qo'yildi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yurtimiz shifobaxsh o'simliklarga juda boydir. Shunday o'simliklardan biri kovar – madaniy bo'limgan, mahsus qarov talab qilmaydigan, ob-havo sharoitiga moslanuvchan, ildizidan to guli, mevasi, povasining po'stlog'igacha tabobatda foydali bo'lgan bebafo foydali o'simlik deyishimiz mumkin. Bu o'simlikni yetishtirish nafaqat mamlakat dori sanoatida, balki yurtimiz iqtisodiyotiga ham salmoqli foyda keltiradi deya olamiz.



**References:**

1. Oripov R, Xalilov N. "O'simlikshunoslik" O'quv qo'llanma, Samarqand, 2006y.
2. Atabayeva X.N va boshqalar "O'simlikshunoslik" T.: Mehnat, 2000y.
3. Internet materiallari.